



“ILK QADAM” DAVLAT O’QUV DASTURI ASOSIDA TAYYORLOV GURUHI BOLALARINI MAKTAB TA’LIMIGA TAYYORLASH HOLATI

Rixsiyeva Muxlisa Dilmurod qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti

Maktabgacha ta’lim nazariyasi va metodikasi

yo’nalishi MPRE-6U guruh 2-kurs magistri

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Ilk qadam” davlat o’quv dasturi asosida bolalarni maktab ta’limiga tayyorlash mazmuni yoritilgan. 6-7 yoshli bolaning maktab ta’limiga tayyorligini aniqlash bo’yicha ko’rsatmalar berilgan. “Maktabga tayyorgarlik” tushunchasi yoritib berilgan. Bolalarni maktab ta’limiga tayyorlashda ota-onalar bilan hamkorlik ishlari yoritilgan.

Kalit so’zlar: maktabga tayyorlash, kompetensiya, intelektual, axloqiy, rivojlanish xaritasi, rivojlanish sohasi, savodxonlik, bilish jarayonlari.

Uzluksiz ta’lim tizimida maktabgacha ta’lim bosqichi muhim bosqichlardan bir hisoblanadi. Bolalar 3 yoshdan 7 yoshgacha maktabgacha ta’lim bosqichida shaxs sifatida shakllanishining muhim davrlaridan biri sanaladi. Bu bosqichda bolalarda dastlabki ko’nikmalar shakllantiriladi. E’tiborli, umumiyoq o’rta ta’lim bosqichiga sifatlari tayyorlash maktabgacha ta’lim bosqichining ustuvor vazifasi sanaladi.

Shu bois, maktabgacha ta’lim bosqichida dasturlarni takomillashtirish orqali bolalarni har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan bo’lishi zarur. Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimini yanada rivojlantirish, bolalarni har tomonlama yetuk barkamol shaxs etib tarbiyalash, ularga sifatlari ta’lim berish va maktabga ta’limiga tayyorlash asosiy maqsad hisoblanadi. Bolalarni maktabga intelektual, jismoniy va psixologik jihatdan tayyorlashimiz zarur.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan 2024yil 30-sentabr kuni “Maktabgacha ta’lim sifati va samaradorligini yanada oshirish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi [PF-152-sonli] farmoni qabul qilindi. Farmonga ko’ra, maktabgacha ta’limning davlat ta’lim dasturi doirasida quydagilar amalga oshiriladi:

- kichik va o’rta guruhlardagi bolalarda kognitiv, psixomotor va ijtimoiy ko’nikmalarni rivojlantirish;
- katta va maktabga tayyorlov guruhlaridagi bolalarda bilim olish, kommunikativ va ijodiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan o’quv-metodik materiallarni ishlab chiqish. 2026-2027 o’quv yilidan:
- bog’chalar tomonidan Maktabgacha ta’limni boshqarish axborot tizimida bolaning rivojlanish xaritasini yuritish amaliyoti joriy qilinadi;
- maktabga tayyorlov guruhlarini tamomlagan bolalarga ularning rivojlanish xaritasi asosida bir yillik maktabga tayyorlovdan o’tganlik haqida elektron sertifikat berish yo’lga qo’yiladi.



2025-yil 1-avgustgacha:

- maktabgacha ta'limning davlat ta'lim dasturi doirasida ishlab chiqilgan elektron resurslar, audiovizual mahsulotlar va o'quv-metodik materiallar Maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimida joylashtiriladi hamda ulardan erkin va bepul foydalanish imkoniyati yaratiladi;
- Maktabgacha ta'limni boshqarish axborot tizimida ota-onalar uchun shaxsiy kabinet yaratiladi va unda bolaning rivojlanish xaritasi ma'lumotlarining joylashtirilishi ta'minlanadi.

Farmoning ijrosini ta'minlash maqsadida, bolalarni mifikta ta'limiga sifatli tayyorlashda, bolalarda intelektual, axloqiy, psixologik, jismoniy, ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishimiz zarur deb hisoblayman.

Mutaxassislarning ilmiy xulosalariga ko'ra, inson hayoti davomida barcha ma'lumotlarning 70 foizini 5 yoshga to'lgunga qadar oladi. Ushbu faktning o'zi, bolalarimizning barkamol shaxs sifatida shakllanishi uchun maktabgacha ta'lim tashkilotidagi tarbiya va ta'lim qanchalik muhimligini yaqqol namoyon qilib turibdi. Taniqli pedagog A.S.Makarenko besh yoshgacha bo'lgan tarbiya bolaning shaxsiyati shakllanishida o'ta muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd etib o'tgan. U bu haqda shunday deb yozgan: "...tarbiyaning bosh asosi besh yoshda nihoyasiga yetadi, demak, siz besh yoshgacha nima qilgan bo'lsangiz, bu tarbiyaviy jarayonning 90 foizini tashkil etadi, keying tarbiya esa qayta tarbiyalash negizida davom etadi". Bolaning ongi asosan 5-7 yoshda shakllanishi inobatga oladigan bo'lsak, aynan shu davrda uning qalbida oiladagi muhit ta'sirida ma'naviyatning ilk kurtaklari namoyon bo'la boshlaydi. Mana shu jarayonda bola tarbiyasiga o'ta e'tiborli bo'lish lozim. O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim to'g'risidagi Nizomga¹ muvofiq bola maktabgacha ta'limni uyda, ota-onalarning mustaqil ta'lim berishi orqali yoki doimiy faoliyat ko'rsatadigan maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, shuningdek maktabgacha ta'lim tashkilotlariga jalb qilinmagan bolalar uchun maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, maktablarda, mahallalarda tashkil etilgan maxsus guruhlar yoki markazlarda oladi. Bu yerda ular haftada 2-3 marta shug'ullanishadi. Ota-onalarga maktabgacha ta'lim shaklini tanlash huquqi beriladi. 6-7 yoshli bolaning mifikta ta'limiga tayyorligini aniqlashda maktabgacha ta'lim yoshdagagi bolalar ta'lim-tarbiyasi bilan shug'ullanuvchilar asosiy shart hisoblanmish -bolaning maktabga tayyorligi maktabgacha va mifik davridagi hayot tarzi hamda faoliyati uchun ko'prik vazifasini o'tashini, oila yoki maktabgacha ta'lim tashkilotidagi ta'lim- tarbiya sharoitlarida mifikta ta'limiga o'tkazishni ta'minlash zarurligini hisobga olishlari lozim.

Yetakchi mutaxassislarning fikriga ko'ra "Maktabga tayyorgarlik"

tushunchasi bolani maktabga tayyorlashning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

- jismoniy,
- shaxsiy (ruhiy),
- aqliy
- maxsus tayyorgarlik.

Maktabgacha yoshdagagi bolalarda mifikta ta'limiga tayyorlash hamda unda savodxonligini rivojlantirish quyidagi talablarga bo'y sunadi.

- bolani rivojlantirishga qaratilgan qulay, do'stona, xavfsiz muhitni yaratish. Bolalar jamoasida do'stona munosabatni qadrlash. Bolaga yo'naltirilgan ta'limga yondashuv assosida ta'lim -tarbiya berish, uzoq davom etadigan mashg'ulotlar bilan emas, balki bolada qiziqishni uyg'otadigan, uni

¹ 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son qarori



hayratlantiradigan o'yinlardan iborat ta'limiy jarayonlarni tashkil etish. O'yindan asosiy ta'limiy faoliyat sifatida foydalanish. Didaktik vositalarni keng qo'llash.

- bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, ularning xotirasi, diqqati, nutqi, tafakkurini inobatga olish. Bolada o'qishga nisbatan xohish, istak, qiziqish uyg'otish. Kattalar tomonidan bolaga bosim o'tkazish, uning erishgan natijalaridan qoniqmaganlikni bildirish man etiladi.
- olib boriladigan ta'lim va tarbiyaviy jarayonlar ketma-ketlikda, oddiydan murakkablashib borishi zarur.
- tizimli ravishda bolada kichik yosh davridan boshlab so'zlarni to'g'ri talaffuzini rivojlanirish. Tarbiyachi o'z nutqiga nisbatan talabchan bo'lishi.
- bolalarda o'z nutqida to'g'ri talaffuz, qulay grammatik shakllar va xilma-xil gap konstruksiyalaridan va yozishning dastlabki malakalari va vositalardan foydalana olishga bo'lgan ishonchni hosil qilish.

Rivojlanish sohalari bo'yicha kompetensiyalarni o'zaro bog'liq holda takomillashtirish bolaning har tomonlama rivojlanishini ta'minlash, shuningdek, uning mifikta ta'limi bo'lgan keyingi bosqichiga muammosiz o'tishi va unga tayyor bo'lishi, boshlang'ich ta'limdakompetensiyalarni shakllantirishi uchun zarurdir. Bolaning kompetensiyalari bola rivojining quyidagi sohalarida belgilanadi:

- jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;
- ijtimoiy-hissiy rivojlanish;
- nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;
- bilish jarayonining rivojlanishi;
- ijodiy rivojlanish.

"Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasi kompetensiyalari "Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi" sohasidagi ta'lim va tarbiyajarayoni yakunida 6-7 yoshli bola: -o'z imkoniyatlari va yoshi bilan bog'liq jismoniy rivojlanish me'yorlariga mos ravishda jismoniy faollik ko'rsatadi;

- turli xil faol harakat turlarini uyg'un holda va maqsadli bajarishni biladi;
- turli hayotiy va o'quv vaziyatlarida mayda motorika ko'nikmalaridan foydalanadi;
- o'z harakatlarini hissiyot va sezgi organlari yordamida boshqaradi;
- shaxsiy gigiena malakalarini namoyon etadi;
- sog'lom turmush tarzi va ovqatlanish asoslarini biladi;
- xavfsiz hayot faoliyati asoslari qoidalariga rioya qiladi.

"Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalari

"Ijtimoiy-hissiy rivojlanish" sohasidagi ta'lim va tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bola:

- o'z 'Meni va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;
- o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;



- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;
- murakkab vaziyatlardan chiqishning amaliy yo'llarini topadi.

"Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasi kompetensiyalari "Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari" sohasidagi ta'lismi va tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bola:

- ona tilini eshitadi va tushunadi;
- ona tilida to'g'ri talaffuz, mos grammatik shakllar va turli gap tuzilmalaridan foydalanadi;
- chet tilini o'rganishga qiziqish bildiradi;
- chet tili bo'yicha dastlabki bilimlarini namoyish etadi;
- badiiy adabiyotga qiziqish bildiradi;
- so'zning lug'aviy ma'nosi, bo'g'inli va fonetik tuzilishi to'g'risida tasavvurga tushunchaga ega bo'ladi;
- gapning turli ma'no shakllarini mustaqil ravishda tuzadi va so'zlab bera oladi;
- ona tilida yozishning dastlabki malakalari va vositalaridan foydalanishni biladi.

"Bilish jarayoning rivojlanishi" sohasi kompetensiyalari

"Bilish jarayonining rivojlanishi" sohasidagi ta'lismi va tarbiya jarayoni yakunida 6-7 yoshli bola: - bilim olishga katta qiziqish bildiradi;

- o'quv va hayotiy faoliyat uchun axborotni mustaqil topadi va qo'llaydi;
- predmetlar, voqe'a-hodisalar va holatlar o'rtaqidagi bog'liqlikni tushunadi va ularni yaxlit bir butunlik sifatida idrok qiladi;
- raqamlar, sanashni biladi va ularni hayotda qo'llaydi;
- makon, shakl va vaqtga mos ravishda ish tutadi;
- elementar matematika hisoblarini amalga oshiradi;
- atrof-muhitni asrab-avaylash munosabatini namoyon etadi.

"Ijodiy rivojlanish" sohasi kompetensiyalari "Ijodiy rivojlanish" sohasidagi 'ta'lismi va tarbiya jarayoni yakuniga 6-7 yoshli bola:

- san'at va madaniyatga qiziqishni namoyon qiladi;
- milliy an'analarni qadrlaydi va ularni kundalik hayotining bir qismi sifatida idrok etadi;
- san'atning muayyan turini afzal ko'rishini mustaqil ravishda ifodalaydi;
- olingan bilim va ko'nikmalardan turli hayotiy vaziyatlarda o'z ijodiy rejalarini tuzish va tatbiq qilish uchun foydalanadi;
- insonning dunyoni o'zgartirishdagi yaratuvchanlik rolini tushunadi.

Maktabning bola shaxsiga qo'yadigan asosiy talablaridan biri psixologik tayyorgarlikdir. Bolaning psixologik tayyorligi uning jamiyatdagi ijtimoiy mavqeyini o'zgarishi va kichik mакtab yosh davridagi bolalar o'quv faoliyatining o'ziga xosligi bilan uzviy bog'liq. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, maktabda psixologik aniq bir mazmun doimiy hisoblanmaydi, balki u doimo o'zgarib boyib boradi. Psixologik tayyorlikning tarkibiy jihatlari: intellectual (aqliy), ma'naviy va irodaviy tayyorgarlikdan iboratdir. Aksariyat hollarda bolaning aqliy rivojlanganlik darajasi haqida gapirliganda uning so'z boyligi zahirasi



bilan aniqlanadigan aqliy bilimlari miqdoriga ko'proq e'tibor beriladi. Ota-on, xatto ayrim o'qituvchilar ham bola qanchalik ko'p bilsa, u shunchalik rivojlangan bo'ladi, deb o'yaydilar. Aslida esa unday emas, fan- texnika, ommaviy axborot vositalarining keng tarqalganligi tufayli bugungi kun bolalari go'yo ma'lumotlar ummonida suzib yurgandek bo'lmoqdalar. Bu esa ulardagi so'z boyliklarning keskin o'sishiga asos bo'lmoqda, lekin bu ularning tafakkuri ham shunday jadallikda rivojlanayapti, degan gap emas. Maktabda amal qilinayotgan o'quv dasturlarini o'zlashtirish boladan narsalarni taqqoslay bilish, taxlil qilish, umumlashtirish, mustaqil xulosalar chiqarish kabi bilish jarayonlarining yetarlicha rivojlangan bo'lishini taqozo etadi. Shuning uchun ham xozirgi kunda maktab amaliyatchi psixologlari tomonidan bolalarni birinchi sinfga qabul qilish jarayonida keng foydalilanayotgan psixodiagnostik vositalar, testlar, so'rovnomalar, asosan bolada yuqorida keltirib o'tilgan xususiyatning rivojlanganlik darajasini aniqlashga mo'ljallangan metodikalardan iboratdir. 5-7 yosh bolaning maktabga intellektual (aqliy) tayyorligining yana muhim ko'rsatkichlaridan biri bu ulardagi obrazli tafakkurning oliy darajada rivojlanganligidir. Bularga tayangan holda bola atrof-muhitdagi narsa-hodisalar o'rtasidagi eng muhim xususiyatlarni, munosabatlarni farqlay olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu o'rinda bolalar chizmali tasvirlarni shunchaki tushunibgina qolmay, balki ulardan muvaffaqiyatli foydalana oladigan bo'ladilar. Biroq ularning tafakkuri umumlashtirish xislatlariga ega bo'la borsada, predmetlar va ularning (tafakkuri) o'mini bosuvchilar bilan aniq xatti-harakati obrazliligicha qolaveradi.

Maktabgacha yosh davridayoq bola kichik maktab yosh davrida yetakchi faoliyat turi bo'ladigan - o'quv faoliyatiga tayyorlangan bo'lishi lozim. Bunda bolada ma'lum bir tegishli masalalarining shakllangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bunday malakalarning asosiy xususiyatlardan biri bolaning o'quv topshirig'ini ajratib olishi va faoliyatni mustaqil maqsadga aylantira olishidir. Bunday jarayonlar birinchi sinf o'quvchilaridan topshiriqda o'zi belgilagan o'zgarish, yangilik alomatlarini qidirib topa bilish va ulardan hayratlanishni, qiziqishni talab qiladi. Bunday topshiriqlar amaliy ishlarga aylantirilsa yoki o'yin tarzida bajarilsa, osonroq kechadi va bola o'zlashtiradi.

Xulosa: Maktabga umumiyligi tayyorlangan maktabgacha ta'lim tashkilotining maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni har tomonlama tarbiyalashga oid davomli, maqsadga muvofiq ta'lim- tarbiyaviy ishning muhim yakuni sifatida namoyon bo'ladi. Maktabga umumiyligi tayyorlangan maktabga borish vaqtiga kelib aqliy, ma'naviy, estetik va jismoniy rivojlanishda erishgan shunday darajasidirki, u bolaning maktab ta'limining yangi sharaoitlariga va o'quv materialining ongli egallahsha faol kirib borishlari uchun zarur asosni yaratadi. Umumiyligi tayyorlangan maktab ta'limiga o'tish davriga kelib erishadigan psixik rivojlanishning muayyan darajasi bilan ifodalanadi.

Maktabgacha yoshdagagi bolaning maktab ta'limiga o'tishi hamisha uning hayoti axloqi qiziqish va munosabatlarida anchayin jiddiy tub o'zgarishlarni yuzaga chiqaradi. Shuning uchun maktabgacha yoshdagagi bolani bog'chada yoki uydayoq maktab ta'limiga tayyorlash, uni unchab bo'limgan bilim, tushuncha, ko'nikma va malakalar bilan tanishtirish kerak bo'ladi. Bunday tanishtiruv moslashuv davrining jiddiy qiyinchiliklaridan xalos bo'lishiga yordam beradi. Bolalarni maktabgacha tayyorlashdan maqsad bola shaxsini maktabgacha yoshdagagi bolalar ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan davlat talablariga muvofiq sog'lom va yetuk, maktabgacha o'qishga tayyorlangan tarzi shakllanishdan iboratdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- “Ta’lim to’grisida”gi Qonun 2020-yil 23-sentabr
- O’zbekiston Respublikasi Xalq ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 5712-sonli farmoni 2019-yil 29-aprel.



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi "Maktabgacha ta'lif sifati va samaradorligini yanada oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi [PF-152-sonli] farmoni
4. Qodirova F., Sh. Toshpo'latova, N. Qayumova, M. A'zamova Maktabgacha pedagogika. – T.: Tafakkur. 2019.
5. O.Fozilova., I.Turaqulov Bolalarni maktabga tayyorlash metodikasi. O'quv qo'llanma -Farg'ona 2023
6. D.Asqarova Bolalarni maktab ta'lifiga tayyorlash metodikasi. O'quv qo'llanma-Toshkent 2020
7. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lif tizimida sifat samaradorligini oshirishning innovatsion yondashuvi. Davranova Gulbahor Numondjonovna
8. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lif jarayonida uzviylikni ta'minlashning metodik imkoniyatlari. Xakimova Mehriniso Xokimatovna. 2022-yil